


Iste'mol bozori

(2020-yil yanvar-aprel*)

Chakana savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 2238,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yilning (2207,3 mlrd. so‘m) shu davriga nisbatan 90,2 % ni tashkil etdi

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 12,3 % ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,7 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi




* dastlabki ma'lumot

Jami chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (2020-yil yanvar-aprel)


	2019-yil savdo hajmi (mlrd. so'm)	Ulushi (%)	2020-yil savdo hajmi (mlrd. so'm)	Ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)
<i>Jami chakana savdo tovar aylanmasi</i>	2207,3	100,0	2238,2	100,0	90,2
<i>Yirik korxonalar</i>	222,8	10,1	276,0	12,3	110,2
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari</i>	1984,4	89,9	1962,2	87,7	88,0

Jami chakana savdo tovar aylanmasi (mlrd. so'm)



2020-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)


(ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda)



Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasi hajmida 2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

Qayd etish joizki, Jizzax shahri (553,9 mlrd. so'm), Zomin (409,3 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (290,4 mlrd. so'm) va Baxmal (255,5 mlrd. so'm) tumanlari viloyat chakana savdo aylanmasi hajmining o'zgarishiga katta hissa qo'shgan hududlar hisoblanadi.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasining o'zgarish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan)




Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasida 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'zgarish sur'atlari kuzatildi.

Xususan, nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Zafarobod (48,2 mlrd. so'm, 95,6 % ni), Sharof Rashidov (290,4 mlrd. so'm, 93,3 % ni), Baxmal (255,5 mlrd. so'm, 92,9 % ni), Do'stlik (83,2 mlrd. so'm, 92,6 % ni), Mirzacho'l (65,9 mlrd. so'm, 91,6 % ni), Arnasoy (58,1 mlrd. so'm, 91,0 % ni), Forish (100,5 mlrd. so'm, 90,6 % ni) tumanlari va Jizzax shaxri (553,9 mlrd. so'm, 90,1 % ni) tashkil etdi.

O'zgarish sur'atlari nisbatan yuqori bo'lmagan hududlar G'allaorol (174,5 mlrd. so'm, 86,3 % ni), va Zomin (409,3 mlrd. so'm, 87,7 % ni) tumanlari hisoblanadi.

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Jizzax shahri 24,8 % bilan viloyatda birinchi o'rinni egallab turibdi va Zomin (18,3 %, ikkinchi o'rin), Sharof Rashidov (13,0 %, uchinchi o'rin) hamda Baxmal (11,4 %, to'rtinchi o'rin) tumanlari o'z ko'rsatkichlari bilan chakana savdo hajmi o'sishiga ijobji ta'sir ko'rsatdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmida nisbatan kam ulushga ega bo'lgan Mirzacho'l, Zafarobod (2,2 %, o'ninch o'rin), Arnasoy (2,6 %, o'n birichi o'rin), Mirzacho'l(2,9 %, o'n ikkinchi o'rin) va Zarbdor (3.3 %, o'n uchinchi o'rin) tumanlari pastki o'rirlarni egallab kelmoqda.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (ming so'mda)



Umumiyligi ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 88,3 % (1195,4 ming so'm) ni tashkil etdi. (2019 yil yanvar-aprel oylarida 1628,4 ming so'mni tashkil qilgan edi).


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hududlar kesimida



O'rtacha jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatgichlari Jizzax shahri (3 112,1 ming so'm), Zomin (2 497,2 ming so'm) Baxmal (1 635,8 ming so'm) va Paxtakor tumanlarida (1328,5 ming so'm) kuzatildi.


Umumi ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi (mln. so'm)

Viloyatda umumi ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 38 416,0 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yil (46543,1 mln. so'm) ning shu davriga nisbatan 24,5 % ga kamaygan. Umumi ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi kamayishiga mart oyida yurtimizda aniqlangan "Covid-19" epidemiyasining oldini olish maqsadida joriy etilgan karantin sabab bo'ldi.




Umumi ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi umumi hajmida eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etgan hududlar Jizzax shahri (19 368,2 mln. so'm), Sharof Rashidov (5 486,8 mln. so'm) hamda Forish (3 028,8 mln. so'm) tumanlari hisoblanadi. Umumi ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan barcha hududlarda kamayish ro'y berganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi (mln. so'm)





Umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasining hududlar kesimida o'zgarish sur'ati, % da



Hududlar bo'yicha tahlil qilinganida, umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan Zomin tumanida (23,0 %) ga oshdi va qolgan barcha hududlarda kamayish kuzatildi. Xususan Forish (44,9 %), Sharof Rashidov (75,1%), Mirzacho'l (75,6%), G'allaorol(75,7 %) tumanlarida sezilarli kamayish kuzatildi.

Jami chakana savdo aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 88,0 % ni tashkil etdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 87,7 % ini tashkil qildi.

Viloyatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari chakana tovar aylanmasi hajmi 1962,2 mlrd. so'mini tashkil etdi. Shundan 1403,8 mlrd. so'mini uyushmagan savdo va norasmiy soha tashkil qildi.


Norasmiy soha va uyushmagan savdoning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 62,7 % ni tashkil etdi.

Ulgurji tovar aylanmasi

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 657,4 mlrd. soʻmni yoki 2019-yilning shu davriga nisbatan 81,5 % ni tashkil etdi. Hududlar miqyosida olib qaralganda, ulgurji tovar aylanmasida barcha hududlarda 2019-yilning shu davriga nisbatan ramayish kuzatildi.

	Ulgurji savdo tovar aylanmasi, mlrd. soʻmda	Oʼsish surʼati, % da
<i>Jizzax viloyati</i>	657,4	81,5
<i>shahar:</i>		
<i>Jizzax sh.</i>	192,1	73,1
<i>tumanlar:</i>		
<i>Arnasoy</i>	12,3	55,7
<i>Baxmal</i>	39,0	90,9
<i>Gʼallaorol</i>	19,7	94,7
<i>Sharof Rashidov</i>	123,8	90,3
<i>Doʼstlik</i>	46,4	87,6
<i>Zomin</i>	82,4	96,4
<i>Zarb dor</i>	44,7	85,6
<i>Zafarobod</i>	18,5	76,5
<i>Mirzachoʻl</i>	14,0	51,8
<i>Paxtakor</i>	15,6	53,5
<i>Forish</i>	22,6	97,7
<i>Yangiobod</i>	26,4	97,5

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulgurji savdodagi ulushi, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 97,9 % ni tashkil etib, 490,2 mlrd. so'mga yetdi va umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 74,6 % ni tashkil qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel: (72) 221-51-26